**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности психологического развития личности, воспитывающейся в дистантных семьях, а также анализируются социально-культурные факторы, влияющие на данный процесс. В рамках демографической политики общества поддержка семей с несколькими детьми является одним из приоритетных направлений. Однако в массовом сознании дистантные семьи неоднозначно оцениваются как фактор психосоциального развития детей. В связи с этим изучение динамики психологического развития, личностных особенностей и социальной адаптации лиц, воспитывающихся в дистантных семьях, представляет собой актуальную научную проблему.

**Ключевые слова:** дистантные семьи, психологическое развитие, интеллект, незащищённость, самостоятельность, доверчивость, эмоциональная неустойчивость.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatda distant oilalar fenomeni ijtimoiy, iqtisodiy va demografik jarayonlarning jadallashuvi natijasida keng tarqalib borayotgan oilaviy munosabatlar shakllaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha yuz millionlab oilalar mehnat migratsiyasi, harbiy xizmat, ta'lim olish, xizmat safari yoki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida masofaviy oilaviy munosabatlar sharoitida hayot kechirmoqda. Xususan, International Organization for Migration va United Nations ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro migrantlar sonining ortib borishi natijasida ota-onalardan birining yoki har ikkala ota-onaning ham oiladan uzoqda yashashi ko'plab mamlakatlarda odatiy holatga aylanmoqda. Shu sababli distant oilalar muammosi nafaqat sotsiologiya va demografiya, balki psixologiya fanining ham dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda <sup>[1]</sup>.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda distant oilalar bolaning ruhiy salomatligi, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi murakkab psixologik tizim sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar (Andreeva T.N., Balandina L.L., Djandosova J.S., Dumitrashku T.A., Adler A., Jiao S., Narchal R., Vagner M. va boshqalar) distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning shaxsiy xususiyatlari, emotsional rivojlanishi hamda xulq-atvor strategiyalari oilaviy aloqalarning intensivligi, emotsional yaqinlik darajasi va ota-onalarning psixologik ishtiroki bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydilar <sup>[2]</sup>.

Distant oilalarda bolalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri oilaviy kommunikatsiyaning sifati hisoblanadi. Ota-onalar bilan bevosita muloqotning cheklanganligi ayrim hollarda bolalarning noaniq vaziyatlarga moslashish jarayonini murakkablashtirishi, ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan sezgirligini oshirishi hamda tashqi baholashga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirishi mumkin. Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, oilaviy munosabatlarning masofadan amalga oshirilishi sharoitida ayrim bolalarda tashvishlilik, emotsional ta'sirchanlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoj ko'rsatkichlari nisbatan yuqoriroq namoyon bo'ladi. Bunda bolaning o'zini anglash jarayoni, mustaqillik darajasi hamda shaxsiy identifikatsiyasining shakllanishi oiladagi emotsional bog'liqlikning saqlanib qolish darajasiga bog'liq ravishda kechadi.

Biroq distant oilalar faqat xavf omili sifatida baholanishi ilmiy jihatdan to'liq asosli emas. So'nggi yillardagi tadqiqotlar masofaviy oilaviy munosabatlar ayrim hollarda bolalarda mustaqillik, mas'uliyat, o'z faoliyatini rejalashtirish va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi sifatning rivojlanishiga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalaniladigan oilalarda ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi emotsional aloqalarning saqlanib qolishi bolaning psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim himoya omili sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan <sup>[3]</sup>.

Xorijiy tadqiqotlarda distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ko'pincha yuqori darajadagi moslashuv strategiyalarini shakllantirishi, oilaviy mas'uliyatni erta anglab yetishi hamda murakkab hayotiy vaziyatlarni mustaqil hal etishga moyilligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlarning emotsional jihatdan yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligi bolalarda yolg'izlik hissi, ijtimoiy begonalashuv, o'ziga ishonchning pasayishi va psixologik himoya mexanizmlarining nomutanosib rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, ota-onalarning uzoq muddatli migratsiyasi bilan bog'liq distant oilalarni o'rganishga bag'ishlangan xalqaro tadqiqotlarda bolalarning psixologik farovonligi ko'proq oiladagi emotsional yaqinlik, ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish imkoniyati hamda vasiylik funksiyalarini bajaruvchi shaxslarning psixologik kompetentligiga bog'liq ekanligi qayd etilgan. Bunday oilalarda bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi oilaviy tizimning funksional yaxlitligi, rollarning aniq taqsimlanganligi va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, distant oilalar zamonaviy jamiyatning keng tarqalgan ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, ularning bolalar rivojlanishiga ta'siri bir yoqlama emas, balki ko'p omilli va tizimli xarakterga ega. Mazkur oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini kompleks o'rganish oilaviy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi hamda ijtimoiy psixologiya fanlari oldida turgan dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan distant oilalarda shakllanuvchi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini aniqlash va ularning bolaning psixologik rivojlanishiga ta'sir mexanizmlarini ochib berish zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilar ekan, G.T. Homentauskas tomonidan ilgari surilgan ayrim nazariy qarashlar zamonaviy oilaviy munosabatlar kontekstida yangi mazmun kasb etadi. Tadqiqotchining fikricha, bolaning ijtimoiy tajribasi va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi uning yaqin ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri xarakteriga bog'liq bo'ladi. Distant oilalarda ota-onalardan birining yoki har ikkala ota-onaning ham uzoq muddat davomida oiladan jismoniy jihatdan ajralgan holda yashashi bolalarning emotsional rivojlanishi va ijtimoiylashuv jarayoniga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi <sup>[4]</sup>.

Bunday sharoitda bola kundalik hayotda ota-onaning bevosita ishtirokini cheklangan darajada his qiladi. Natijada ayrim hollarda emotsional himoyaga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi, o'ziga ishonch darajasi pasayadi hamda yaqin insonlarning qo'llab-quvvatlashiga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Ota-onalar bilan to'laqonli va muntazam muloqotning yetishmasligi bolaning o'zini baholash tizimiga ham ta'sir qilishi mumkin. Ayrim bolalar o'zlarini atrofda gilardan ajralib turuvchi yoki alohida maqomga ega deb his etishga moyillik bildirsa, boshqalarda esa, aksincha, o'z imkoniyatlariga nisbatan shubha va ishonchsizlik kuzatiladi. Shu sababli distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalar uchun tengdoshlar bilan muloqot qilish, ijtimoiy guruhlarda faol ishtirok etish hamda emotsional tajriba almashish muhim kompensator mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar distant oilalar sharoitida voyaga yetayotgan bolalarning rivojlanishini bir tomonlama salbiy baholash mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Masofaviy oilaviy munosabatlarda sharoitida ota-onalar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida muntazam emotsional qo'llab-quvvatlash amalga oshirilgan hollarda bolalarda mustaqillik, mas'uliyatlilik, o'z faoliyatini rejalashtirish va muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalari nisbatan tezroq shakllanishi kuzatiladi.

T.A. Dumitrashku tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar ham shuni ko'rsatadiki, ekstraversiya va nevro-tizm kabi bazaviy shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishi oilaning tashkiliy shakliga emas, balki oilaviy munosabatlarning sifati va emotsional muhitiga ko'proq bog'liqdir. Ushbu nuqtayi nazardan, distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ekstraversiya darajasi odatiy oilalarda tarbiyalanayotgan tengdoshlari bilan sezilarli darajada farq qilmasligi mumkin. Biroq ota-onalar bilan hissiy aloqalarning zaiflashishi ayrim bolalarda tashvishlilik, emotsional sezgirlik va psixologik himoyaga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas<sup>[5]</sup>.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi distant oilalar farzandlarida emotsional jihatdan ahamiyatli vaziyatlarda xavotirlanish, ehtiyotkorlik va xavfsirash kabi reaksiyalar nisbatan ko'proq namoyon bo'lishi mumkin. O'smirlik davriga kelib esa ota-onalardan uzoqda shakllangan hayotiy tajriba natijasida ayrim bolalarda mustaqillik, qaror qabul qilish qobiliyati va shaxsiy mas'uliyat darajasi ortadi. Boshqa hollarda esa emotsional beqarorlik, o'ziga ishonchsizlik yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi kuzatilishi mumkin. Mazkur holatlar oiladagi kommunikatsiya sifati, ota-onalar bilan muloqot chastotasi va oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligiga bevosita bog'liqdir.

Distant oilalarda shakllanadigan shaxslararo munosabatlar ham o'ziga xos psixologik mazmunga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bilan emotsional aloqalari saqlanib qolgan bolalarda mas'uliyatlilik, hamdardlik, boshqalarga yordam berishga tayyorlik va ijtimoiy foydali xulq-atvor shakllari nisbatan barqaror rivojlanadi. Aksincha, oilaviy qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lmagan holatlarda bolalarda ijtimoiy ishonchsizlik, shubhalanuvchanlik, yaqin munosabatlarni shakllantirishdagi ehtiyotkorlik hamda psixologik himoya reaksiyalarining kuchayishi kuzatilishi mumkin<sup>[6]</sup>.

Shunday qilib, distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning shaxsiy rivojlanishi ota-onalarning jismoniy mavjudligi bilan emas, balki oilaviy munosabatlarning emotsional sifati, kommunikativ faolligi va psixologik qo'llab-quvvatlash darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy tadqiqotlar distant oilalarni bolaning rivojlanishi uchun mutlaq xavf omili sifatida emas, balki muayyan sharoitlarda ham xavf, ham himoya funksiyalarini bajaruvchi murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa distant oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik indikatorlarini chuqur o'rganish va ularning bolalar rivojlanishiga ta'sir mexanizmlarini aniqlashning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning shaxsiy rivojlanishida o'z-o'zini hurmat qilish va o'zini baholash tizimi muhim psixologik tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning o'ziga bo'lgan munosabati, o'z imkoniyatlarini baholashi hamda ijtimoiy maqomini anglash jarayoni oiladagi emotsional yaqinlik, ota-onalarning psixologik qo'llab-quvvatlashi va oilaviy kommunikatsiya sifatiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, distant oilalarda o'z-o'zini hurmat qilish darajasining shakllanishi oilaning tarkibiy xususiyatlaridan ko'ra, ota-onalar bilan saqlanib qolayotgan emotsional aloqalarning mustahkamligi bilan belgilanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ota-onalar bilan muntazam va mazmunli muloqot qiladigan distant oilalar farzandlarida o'ziga nisbatan ijobiy munosabat, o'z kuchiga ishonch va shaxsiy kompetentlik hissi nisbatan yuqori darajada shakllanadi. Aksincha, oilaviy munosabatlarda emotsional uzoqlashuv kuzatiladigan hollarda bolalarda o'ziga ishonchsizlik, tashqi baholarga ortiqcha bog'liqlik hamda o'z qadr-qimmatini baholashdagi noaniqliklar paydo bo'lishi mumkin. Ayniqsa, o'smirlik davrida bolaning tashqi ko'rinishi, ijtimoiy mavqei va tengdoshlar orasidagi o'rni haqidagi tasavvurlari oilaviy qo'llab-quvvatlash darajasiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi.

Distant oilalarda ota-onalarning bolaga ko'rsatadigan e'tibori ko'pincha jismoniy ishtirok orqali emas, balki masofaviy kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Agar ushbu muloqot emotsional jihatdan boy, muntazam va qo'llab-quvvatlovchi xarakterga ega bo'lsa, bolada o'ziga bo'lgan ishonch, o'z imkoniyatlarini real baholash hamda ijobiy "Men" konsepsiyasi shakllanadi. Bunday bolalar o'z qobiliyatlarini namoyon etishga intiladi, ijtimoiy jihatdan faolroq bo'ladi va tengdoshlar bilan munosabatlarda yuqori psixologik moslashuvchanlikni namoyon qiladi.

Distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning xarakter xususiyatlari ko'pincha oilaviy mas'uliyatni erta his qilish, mustaqil qaror qabul qilish zarurati va kundalik hayotdagi vazifalarni bajarish tajribasi ta'sirida shakllanadi. Ota-onalardan biri yoki har ikkala ota-onaning uzoqda bo'lishi ayrim hollarda bolalarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularda mas'uliyatlilik, amaliylik va hayotiy muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Shu sababli distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda mehnatsevarlik, vazifalarni rejalashtirish va natijaga yo'naltirilganlik kabi sifatlar nisbatan barqaror shakllanishi mumkin.

Biroq emotsional stress va frustratsiya vaziyatlarida distant oilalar farzandlarining psixologik reaksiyalari oilaviy munosabatlarning sifatiga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Ota-onalar bilan yaqin emotsional aloqalar saqlangan hollarda bolalar qiyin vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal etishga, murosaga kelishga va boshqalar bilan hamkorlik qilishga moyillik bildiradilar. Emotsional qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lmagan vaziyatlarda esa ayrim bolalarda aybdorlik hissi, o'zini ayblash, ichki zo'riqish yoki, aksincha, tashqi muhitni ayblashga moyillik kuchayishi mumkin <sup>[7]</sup>.

Yosh omili distant oilalarda ham muhim psixologik determinantlardan biri hisoblanadi. Kichik maktab yoshida bolalar oilaviy ajralishni ko'proq emotsional darajada qabul qiladilar va ota-onalarning yo'qligini kuchliroq his etadilar. O'smirlik davriga kelib esa tengdoshlar guruhi, ta'lim muhiti va shaxsiy identifikatsiya jarayonlarining faollashuvi natijasida oilaviy omilning bevosita ta'siri nisbatan kamayadi. Shu sababli o'smirlik davrida oila konfiguratsiyasining emas, balki yoshga xos psixologik rivojlanish qonuniyatlarining ta'siri ustunlik qila boshlaydi.

Umuman olganda, distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ko'pincha vazminlik, amaliylik, mas'uliyatlilik va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi sifatlarini namoyon etsalar-da, oilaviy emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi ayrim hollarda o'ziga ishonchsizlik, tashvishlilik va ichki psixologik himoya reaksiyalarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois distant oilalarda bolaning sog'lom psixologik rivojlanishini ta'minlashda ota-onalar bilan muntazam emotsional muloqotni saqlash, psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish va oilaviy birdamlik hissini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar bolaning o'z-o'zini hurmat qilishi, shaxsiy identifikatsiyasi va ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlovchi asosiy psixologik determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

Distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning psixologik rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi oilaviy munosabatlarning sifati, emotsional yaqinlik darajasi hamda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, distant oilalarda tarbiya jarayoni samarali tashkil etilgan, ota-onalar va farzandlar o'rtasida muntazam emotsional aloqalar saqlanib qolgan hollarda bolalarda psixologik moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik hamda yangi ijtimoiy muhitlarga integratsiyalashuv qobiliyatlari nisbatan yuqori rivojlanadi. Bunday bolalar murakkab hayotiy vaziyatlarga moslashishda faolroq strategiyalarni qo'llaydilar va o'z hayot faoliyatini mustaqil tashkil etishga moyillik bildiradilar.

Shu bilan birga, ota-onalarning uzoq muddatli jismoniy yo'qligi ayrim hollarda bolalarda o'z qadr-qimmatini baholash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, emotsional qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lmagan vaziyatlarda bolalarda o'z ahamiyatini pastroq baholash, o'zini oilaviy tizimning passiv ishtirokchisi sifatida qabul qilish va shaxsiy ehtiyojlarini ikkinchi darajaga surish tendensiyalari kuzatilishi mumkin. Natijada ular noaniq vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishdan ko'ra, atrofdagilar fikriga tayanishga moyillik ko'rsatadilar hamda konformistik xulq-atvor elementlarining kuchayishi ehtimoli yuzaga keladi.

Distant oilalar muammosini o'rganishda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati alohida ahamiyatga ega. Xorijiy tadqiqotchilar Peyj, G. Grandon va M. Vagnerlarning ilmiy xulosalariga ko'ra, oilaning iqtisodiy resurslari qanchalik yuqori bo'lsa, oilaviy tuzilmaning bolalar rivojlanishiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri shunchalik kamayadi. Aksincha, iqtisodiy qiyinchiliklar oilaviy ajralish bilan qo'shilib kelganda, bolalarning kognitiv rivojlanihi, akademik muvaffaqiyati va psixologik farovonligiga nisbatan xavf omillari kuchayadi. Shu sababli distant oilalarda farzandlarning psixologik rivojlanishini baholashda faqat oilaviy ajralish omilini emas, balki oilaning iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy resurslarini ham kompleks tarzda hisobga olish zarur <sup>[8]</sup>.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, distant oilalarda moddiy ta'minlanganlik darajasi bolalarning ijtimoiy xulq-atvori, emotsional holati va xulqiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan barqaror distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalar odatda ko'proq ijtimoiy faollik, yuqoriroq psixologik farovonlik va nisbatan kamroq xulq-atvor muammolarini namoyon etadilar. Aksincha, iqtisodiy qiyinchiliklar bilan birgalikda kechayotgan distant oilalarda emotsional zo'riqish, tashvishlilik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va xulq-atvor buzilishlari xavfi ortadi.

Shuningdek, distant oilalarda bolaning jinsi ham psixologik moslashuvning muhim determinantlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ota-onalardan uzoqda voyaga yetayotgan o'g'il bolalar emotsional va xulq-atvor muammolariga nisbatan qizlarga qaraganda sezgirroq bo'lishlari mumkin. Bu holat erkaklik identifikatsiyasining shakllanishi, ota modeli bilan o'zaro munosabatlarning cheklanishi hamda emotsional tajribalarni ifodalashdagi gender xususiyatlari bilan izohlanadi. Qiz bolalarda esa ijtimoiy qo'llab-



quvvatlash tarmoqlaridan samaraliroq foydalanish va emotsiyalarni verbal ifodalash ko'nikmalari nisbatan rivojlangan bo'lishi mumkin <sup>[9]</sup>.

Biroq distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalar uchun eng muhim himoya omillaridan biri sifatida ijobiy ijtimoiy xulq-atvor, ya'ni hamkorlikka tayyorlik, boshqalarga yordam berish, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat hissi e'tirof etiladi. Ota-onalar bilan muntazam muloqot, yaqin qarindoshlar tomonidan ko'rsatiladigan psixologik qo'llab-quvvatlash hamda maktab va mahalla muhitining ijobiy ta'siri ushbu sifatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada bola oilaviy ajralish bilan bog'liq qiyinchiliklarni konstruktiv tarzda yengib o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotlar distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalar, ayniqsa, o'smirlik davrida tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Ota-onalarning uzoqligi natijasida yuzaga keladigan emotsional bo'shliq ayrim hollarda tengdoshlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish jarayoniga ham ta'sir qiladi. Bunday vaziyatlarda bolalarning ijtimoiy moslashuvi oilaviy qo'llab-quvvatlash, maktab psixologik xizmatlari va yaqin ijtimoiy muhit tomonidan ko'rsatiladigan yordamning samaradorligiga bevosita bog'liq bo'ladi <sup>[10]</sup>.

Demak, distant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning psixologik rivojlanishi oilaviy ajralish omilining o'zi bilan emas, balki emotsional munosabatlarning sifati, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, gender xususiyatlari hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarining samaradorligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan distant oilalar bolalar rivojlanishiga bir vaqtning o'zida ham xavf, ham himoya omillari orqali ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Distant oila - bu oila a'zolaridan birining yoki bir nechtasining mehnat migratsiyasi, harbiy xizmat, xizmat safari, ta'lim olish, kasbiy faoliyat yoki boshqa ijtimoiy sabablar tufayli uzoq muddat davomida oiladan jismoniy jihatdan ajralgan holda yashashi bilan tavsiflanadigan oilaviy tizimdir. Bunday oilalarda oilaviy munosabatlar va tarbiyaviy funksiyalar bevosita muloqot orqali emas, balki masofaviy kommunikatsiya vositalari hamda davriy uchrashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Distant oilalar shakllanish sabablari va oilaviy tuzilish xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, mehnat migratsiyasi bilan bog'liq distant oilalar, harbiy xizmat yoki xizmat vazifalari tufayli ajralgan oilalar, ta'lim olish sababli masofada yashovchi oila a'zolariga ega oilalar, shuningdek, nikoh saqlanib qolgan holda turli hududlarda istiqomat qiluvchi er-xotinlar oilalari ajratib ko'rsatiladi. Ayrim hollarda ota-onalardan biri, ba'zan esa har ikkala ota-ona ham uzoq muddat davomida oiladan tashqarida bo'lishi mumkin. Mazkur holat oilaning psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirish mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Distant oilalarda bolalarning rivojlanishiga oilaviy kommunikatsiya sifati, ota-onalar bilan emotsional aloqalarning barqarorligi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, vasiylik vazifasini bajaruvchi shaxslarning tarbiyaviy salohiyati hamda oilaviy munosabatlarning mazmuni kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar bilan muntazam emotsional muloqotning mavjudligi bolalarning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlovchi muhim himoya omili sifatida namoyon bo'ladi. Aksincha, oilaviy munosabatlarning sustlashuvi, emotsional uzoqlashuv va nazoratning kamayishi bolaning shaxsiy rivojlanishi hamda ruhiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Distant oilalarning asosiy muammolari ko'pincha oilaviy ajralish natijasida yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Xususan, ota-onalarning uzoqda yashashi bolalarda emotsional yetishmovchilik hissi, yolg'izlik, tashvishlilik, ota-onaga bog'liqlikning o'zgarishi hamda shaxslararo munosabatlarda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, oilaviy nazoratning pasayishi, tarbiyaviy ta'sirning bilvositalashuvi va oila a'zolari o'rtasidagi emotsional masofaning ortishi ham distant oilalarning dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Distant oilalarning psixologik xususiyatlari oilaning ichki resurslari va moslashuv imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bunday oilalardagi ota-onalar odatda yuqori darajadagi mas'uliyat hissi, oilani moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga intilish, stressli vaziyatlarga psixologik chidamlilik hamda oilaviy majburiyatlarni uzoq masofadan turib amalga oshirish zarurati bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ular doimiy ajralish natijasida yuzaga keladigan emotsional zo'riqish, aybdorlik hissi va farzandlar tarbiyasida bevosita ishtirok eta olmaslik bilan bog'liq ichki kechinmalarni ham boshdan kechirishi mumkin.

Distant oilalardagi ota-onalarning hayotiy qadriyatlarini ko'pincha oilaviy farovonlikni ta'minlash, farzandlar kelajagi uchun qulay sharoit yaratish, oilaviy birdamlikni saqlash va yaqin munosabatlarni davom ettirish bilan bog'liq bo'ladi. Ular uchun oila a'zolari o'rtasidagi emotsional bog'liqlik, o'zaro ishonch, psixologik qo'llab-quvvatlash va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlar distant oilalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'p jihatdan oilaviy kommunikatsiyaning samaradorligi, emotsional yaqinlikning saqlanishi va oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan psixologik sadoqati bilan belgilanishini ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, distant oilalar zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida keng tarqalib borayotgan oilaviy tizimlardan biri bo'lib, ularning psixologik xususiyatlari oilaviy ajralishning davomiyligi, kommunikativ munosabatlarning sifati, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va oilaviy qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi. Shu sababli distant oilalarni o'rganish oilaviy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi va ijtimoiy psixologiyaning dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Андреева Т. Н. Когнитивные и личностные характеристики детей в многодетной семье : дис. ... канд. психол. наук. - Москва, 1994.
2. Думитрашку Т. А. Факторы формирования индивидуальности ребенка в многодетной семье : дис. ... канд. психол. наук. - Москва, 1992. - С. 117-161.
3. Ковалев С. В. Психология современной семьи. - Москва : Просвещение, 1998. - 208 с.
4. Силина Е. А., Баландина Л. Л. Какие они, дети из многодетных семей? - Пермь, 2005. - 161 с.
5. Goodman R., Meltzer H., Bailey V. The Strengths and Difficulties Questionnaire: A Pilot Study on the Validity of the Self-Report Version // European Child and Adolescent Psychiatry. - 1998. - Vol. 7. - P. 125-130.
6. Yangiboyeva D. R. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-psixologik muammo sifatida // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. - Toshkent, 2024. - № 5 (11). - B. 233-236.
7. Yangiboyeva D. R. Ko'p bolali oilalarda oilaviy hayotdan qoniqish darajasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar // Psixologiya. - Buxoro, 2024. - № 2. - B. 177-183.
8. Yangiboyeva D. R. Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. - Toshkent, 2024. - № 2 (14). - B. 56-63.
9. Yangiboyeva D. R. Qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida ko'p bolali oilalarni o'rganishning psixologik asoslari // Guliston davlat universiteti axborotnomasi. - Guliston, 2024. - № 1. - B. 138-141.
10. Yangiboyeva D. R. Ko'p bolali oilalarni ijtimoiy-psixologik tadqiq etish metodologiyasi: muammolar va istiqbollar // Pedagogik mahorat. - Buxoro, 2024. - № 2. - B. 144-151.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.